



PEDAGOGIKA SOHASINING JAMIYATDAGI O‘RNI HAMDA
AHAMIYATI

Ibragimova Ra’noxon Xadyatillaevna

O‘zDJTU uz O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: ibragimovaranosa34@gmail.com

+998902000082

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada pedagogika sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Unda ta’lim-tarbiya jarayonining shaxs kamoloti, ijtimoiy ong va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogikaning jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda g‘ayriijtimoiy holatlarning oldini olishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqola pedagogika sohasi mutaxassisleri va ta’lim xodimlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: pedagogika, jamiyat, ta’lim-tarbiya, shaxs kamoloti, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiylashuv, tarbiya jarayoni, yosh avlod, jamiyat taraqqiyoti.

KIRISH

Pedagogika sohasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, u shaxs kamoloti, ijtimoiy ong shakllanishi va milliy qadriyatlarning avloddan-avlodga uzatilishida hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Jamiyatning intellektual, ma’naviy va madaniy rivoji bevosita ta’lim-tarbiya tizimi hamda uni ilmiy asosda tashkil etuvchi pedagogika fanining taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois pedagogika nafaqat ta’lim muassasalari doirasida, balki butun jamiyat hayotida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika jamiyatda shaxsni ijtimoiylashuv jarayoniga tayyorlaydi, unda ijtimoiy me’yorlar, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas’uliyati va



vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Tarbiya jarayoni orqali yosh avlod jamiyat qoidalarini anglaydi, ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri yo'l tutishni o'rganadi hamda o'z o'rnini topishga intiladi. Bu jarayonda pedagogika shaxsning nafaqat bilim olishini, balki uning ma'naviy-axloqiy kamolotini ham ta'minlaydi.

Jamiyat rivojlanishi bilan pedagogika sohasi ham doimiy ravishda yangilanib boradi. Zamonaviy pedagogika fanining vazifasi faqat bilim berish bilangina cheklanmay, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot madaniyati va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishdan iboratdir. Bunday yondashuv jamiyat uchun faol, tashabbuskor va mas'uliyatli fuqarolarni tayyorlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogika sohasining jamiyatdagi ahamiyati ijtimoiy muammolarni bartaraf etishdagi roli bilan ham namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya orqali yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik, zo'ravonlik, befarqlik va g'ayriijtimoiy xulq-atvorning oldi olinadi. Pedagogik yondashuvlar asosida olib borilgan profilaktik ishlar sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim, teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlashda ham pedagogika muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika sohasi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. U kelajak avlodni tarbiyalash, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Pedagogika faniga e'tibor qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyatning kelajagi ham shunchalik mustahkam va porloq bo'ladi.

Shaxs o'sib rivojlanib borish jarayonida unga turli salbiy va ijobiy omillar ta'sir ko'rsatadi bu jarayonlarni ijobiy tarfaga o'zgartirishga tarbiya jarayoni yordam beradi Tarbiya - pedagogik nuqtai nazaridan talim va tarbiya

masalalari tizimida amalga oshiriladigan butun o'quv jarayonining bir maqsadni amalga oshirish uchun oldindan rejalashtirilgan faoliyati tushuniladi.

Pedagogika talim va tarbiya uyg'unligi hisoblanib turli ma'noda ishlatiladi meni nazarimda tarbiya keng sotsial ma'noda ijtimoiy hodisa jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini jumladan oilani maktabgacha tarbiya muassasalarini o'quv-tarbiya muassasalarini mehnat jamoalarini axborot manbalarini tarbiya yo'nalishli harakatlarini o'z ichiga oladi, bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun xizmat qiladi.

Pedagogika sohasini milliy istiqlol mafkurasiga mosligi umuminsoniy qadriyatlar milliy o'ziga xosligi ta'lim va tarbiyani o'zaro uyg'unlikda olib borilishi bularning barchasi pedagogika sohasini ijtimoiy hayotimizdagi ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Pedagogika sohasini ijtimoiy hayotimizda vazifasi ma'naviy yetuklikka boshlash, axloqiy yuksaklikka ko'tarish, ilmiy bilimlar yordamida inson dunyoqarashini shakllantirish ,intellektual qobiliyatlar ijodiy tafakkurni aqliy faollikni rivojlantirishdir. pedagogikani ijtimoiy hayotdagi o'rni oilada yaqqol ko'zga tashlanadi xususan oila jamiyatning kichik bir bo'lagi oila hayotning abadiyligini ta'minlaydigan, urf-odatlarimizni saqlaydigan muqaddas tarbiya o'chog'idir. Tarbiya oiladan boshlanadi- deb bejizga aytmagan softil xalqimiz. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Har bir fanning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan, uning asosiy tomonlarini yoritishga xizmat qiladigan va eng ko'p ishlatiladigan asosiy tushunchalari boladi. Xuddi shuningdek, pedagogika fanining ham asosiy kategoriyalari mavjud.

Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim



(o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui. Shakllantirish – shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yori asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.



Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

Etika – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning idrok etilishi, uni yaratishga intilishi, shuningdek, estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iqtisod – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarni anglashga xizmat qiladi.

Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni

ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni o'rganishga yordam beradi.



Gigiena – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishga nazariy va amaliy g‘oyalarni taqdim etadi.

Psixologiya – shaxsda ma‘naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta‘lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, tarixiy tajribani yosh avlodga o‘rgatish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlani-shini ta‘minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

Shaxs kamolotini ta‘minlash, uning intellektual, ma‘naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ular quyidagilardir:

Umumiy pedagogika – pedagogikaning kontseptual masalalari va amaliy jihatlarni tadqiq etadi.

Pedagogika nazariyasi – pedagogikaning umumnazariy masalalari, qonuniyatlari va tamoyillari hamda tasniflashga oid masalalarni o‘rganadi.

Pedagogika tarixi – pedagogik fikrlarning taraqqiy etishi, maktab va ta‘lim turlarining davriy xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari va ahamiyatini tadqiq etadi.



Pedagogik mahorat – o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash taktikasi, pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, pedagogik madaniyat va texnikani tarkib toptirish hamda nutq texnikasini egallash yo‘llarini o‘rganadi. Zero Shavkat Mirziyoyev “Farzandga mehr qo'yish ularning qornini to'q ustini but qilish o'z yo'li bilan lekin bolalarning yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya axloq-odob yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doim dolzarb ahamiyat kasb etadi”- deya ta'kidlab o'tganlar.

Pedagogika sohasining vazifalari quyidagicha: yosh avlodni vatanparvarlik xalq farovonligi kabi oliyjanob g'oyalari ruhida tarbiyalash yosh avlodda axloq qoidalariga mos keladigan axloqiy ko'nikmalar va malakalarni intilishlarni rivojlantirish; yoshlarni o'zi xohlagan kasbni egallashi uchun muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlari uchun ularni iqtisodiy ma'naviy va tarbiyaviy qo'llab-quvvatlash; yoshlarni o'z huquq va majburiyatlarni bilishga o'rgatish o'sib kelayotgan avlodni ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish; yoshlarni jamiyatdagi zararli g'oyalarga qarshi kurashishga o'rgatish; yuksak fazilatli komil insonlarni tarbiya qilish.

Abdurauf Fitrat aytadilarki: - har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq, - bu fikrlardan xulosa qilsak, tarbiya bo'lmagan joyda talim ham bo'lmaydi yoki talim o'z muvaffaqiyat samaradorligini ko'rsata olmaydi. Qachonki tarbiya talim uyg'unlashsagina o'z samarasini ko'rsatadi. Hozirgi davr talim taraqqiyotning yangi yo'nalishi bu innovatsion pedagogika innovatsiya bu ta'lim jarayoniga nisbatan ishlatilib unda texnologiyalarning qo'llanishi bilan bogliq jarayonlar nazarda tutiladi. pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida zarur zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash texnologik yondashuv asosda ta'lim tarbiya samaradorligini oshirish muammolarni o'rganadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda shaxsni shakllanishi rivojlanishi uchun tarbiya ta'lim uyg'unligini ta'minlash pedagogika sohasining vazifalardan biri hisoblanadi. Shu asosda zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion tizimlarni joriy qilinishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yaratilishi ijtimoiy hayotimizda pedagogika sohasini ornini belgilab beradi. pedagogikaning bosh masalasi bu tarbiya hisoblanib ijtimoiy fanlar tizimiga kirib kelgan o'zining nazariy milliy va amaliy asoslarga ega bolganligidan dalolat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ikromova, S. A. (2024). PSIXOLOGIK YORDAMNING ASOSIY USULLARI: MASLAHATLASHUV VA TERAPIYA. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 87-92.
2. Икромова, С. А. (2024). ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОПЫТЫ ЧЕЛОВЕКА И ПРОЦЕСС НИМИ УПРАВЛЕНИЯ. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 14-19.
3. Икромова, С. А. (2024). ГРУППЫ И СОЦИАЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ ЛЮДЕЙ В СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЕ R. Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology, 1(3), 32-38.
4. Икромова, С. А. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ, ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА И ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ. New modern researchers: modern proposals and solutions, 1(2), 56-62.
5. Akbarovna, I. S. (2024). EMOTSIYALARNI TANISH, IFODALASH VA BOSHQARISH USULLARI. Science, education, innovation: modern tasks and prospects, 1(3), 20-25.
6. Ziyo.net

